
HOKIM NARX-NAVO BILAN TANISHDI

Qo'shtepa tumani hokimi I. Novikov va sektor rahbarlari bozordagi ta'minot va oziq-ovqat mahsulotlarining narx-navosini muntazam nazorat qilib bormoqdalar.

Koronavirus infeksiyäsining tarqalishini oldini olish maqsadida tashkil etilgan karantin davrida aholini zarur oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun barcha tadbirlar ko'rilyapti. Narx-navoning asossiz oshib ketish holatlarining oldi olinmoqda.

Tuman hokimi bugun dehqon bozori hamda Yangi do'kon, Qumtepa mahalla fuqarolar yig'inlaridagi jarayon bilan tanishdi. Karantin davrida dehqon bozorida va oziq-ovqat do'konlarida odamlarning birlamchi ehtiyoji uchun zarur bo'ladijan mahsulotlarning yetarli darajada ta'minlanganligi va narx-navoning asossiz oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik holatlari o'rganilib, sotuvchilar bilan yaqindan suhbat o'tkazildi.







Karantin davrida aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va narxni barqaror ushlab turish tuman hokimligi tomonidan doimiy nazoratga olingan.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-04-09 13:54:56